Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 373.3
PEDAGOGIKA

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI SAMARADORLIGINI ANIQLASH YO'LLARI.

Yorqinoy Hamidjonovna Qipchaqova*
*Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*
✉ yorqinoyhamidjonovna20@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini SMART texnologiyalar asosida shakllantirish metodikasining samaradorligini aniqlash uchun pedagogik tajriba-sinov ishlari maxsus tashkil etiladi. Tajriba-sinov metodikasi ishlab chiqilgan model va amaliy metodikaga tayanadi

**Kalit so'zlar**

SMART texnologiya, kasbiy kompetensiya, tajriba-sinov, komponent, nazorat guruhi, qiyoslash, tajriba guruhi, smart-topshiriqlar, raqamli portfolio, interaktiv dars, elektron baholash, model, respondentlar, mezonlar.

DOI: 10.5281/zenodo.21743345

## KIRISH

Tajriba-sinovning asosiy vazifasi tajriba guruhi talabalarida SMART texnologiyalar asosidagi metodika qo'llanganda kasbiy kompetensiya komponentlari qanday rivojlanishini aniqlash, nazorat guruhi natijalari bilan qiyoslash va ilmiy asoslangan xulosa chiqarishdan iborat.

Mazkur tajriba-sinov parallel tajriba va nazorat guruhlari asosida tashkil etiladi. Tajriba guruhida SMART texnologiyalar asosidagi maxsus metodika, smart-topshiriqlar, raqamli portfolio, interaktiv dars ishlanmalari, microteaching, elektron baholash va refleksiv tahlil vositalari qo'llanadi. Nazorat guruhida esa o'quv jarayoni mavjud an'anaviy metodik yondashuv asosida davom ettiriladi. Bunda har ikki guruhda kasbiy kompetensiya darajasi bir xil mezonlar va diagnostika vositalari asosida aniqlanadi.

## ASOSIY QISM

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi – SMART texnologiyalar asosidagi model va metodikaning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini shakllantirishdagi samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsad quyidagi ilmiy farazga tayanadi: tajriba guruhi talabalarida kasbiy kompetensiya SMART texnologiyalar asosidagi maxsus metodika, smart-topshiriqlar, raqamli portfolio, interaktiv mashg'ulotlar, microteaching, elektron baholash va refleksiv faoliyat orqali shakllantirilsa, ularning kasbiy kompetensiya darajasi nazorat guruhi talabalariga nisbatan sezilarli darajada oshadi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalar belgilandi:

Respondentlarning dastlabki kasbiy kompetensiya darajasini motivatsion-qadriyatli, kognitiv, metodik, raqamli-texnologik, kommunikativ, refleksiv va amaliy-faoliyatli mezonlar asosida aniqlash.

Tajriba va nazorat guruhlarini oliy ta’lim muassasalari, kurs, ta’lim yo‘nalishi va umumiy tayyorgarlik sharoitlari bo‘yicha shakllantirish.

Kasbiy kompetensiyani baholash uchun diagnostik mezonlar, ko‘rsatkichlar, baholash vositalari va darajalarni ishlab chiqish hamda qo‘llash.

**XULOSA.** Tajriba guruhida SMART texnologiyalar asosidagi metodikani joriy etish: maxsus mashg‘ulotlar, smart-topshiriqlar, raqamli portfolio, interaktiv dars ishlanmalari, microteaching, loyiha ishlari va refleksiv baholashni tashkil etish.

Nazorat guruhida mavjud an’anaviy ta’lim jarayonini kuzatish va bir xil diagnostik mezonlar asosida baholash.

Aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy-nazorat bosqichlarida oraliq hamda yakuniy natijalarni yig‘ish.

Tajriba va nazorat guruhlari natijalarini foizli tahlil, darajaviy qiyoslash va mos statistik mezonlar asosida qayta ishlash.

Olingan natijalar asosida SMART texnologiyalar asosidagi metodikaning samaradorligi haqida ilmiy xulosa chiqarish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna Smart texnologiyalar asosida bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilari kasbiy mahoratini shakllantirish modeli. Maktabgacha va maktab ta’limi (2025-yil 10-son) C.1364-1367

2. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna Boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy mahoratlarini smart-texnologiyalar asosida shakllantirish metodikasi Farg‘ona metodika maktabi (2025-yil 2-son) C.179-185

3. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna Bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini SMART texnologiyalar asosida shakllantirish metodikasining hozirgi kundagi zaruriy ahamiyati. Farg‘ona davlat universiteti. Innovatsion tadqiqotlar axborotnomasi (2026-yil 5-son) C.16-22

4. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCE AND MODERN REQUIREMENTS IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF PROSPECTIVE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON SMART TECHNOLOGIES THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY VOLUME-5,ISSUE-12 (2026-yil, 25 Fevral ) C.1453-1456

5. Yorqinoy Hamidjonovna Qipchaqova PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARYSCIENCES AND INNOVATIONS COMPANY: GERMAN INTERNATIONAL JOURNALS ISISMNPNAUCMTBFEARC:T2O7R51:-94,30980 (2026) VOLUME-5,ISSUE-06 C.1019-1023

6. Yorkinoy Hamidjonovna Qipchaqova FORMATION OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS AS A PEDAGOGICAL NECESSITY INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY IF = 9.2 IBAST ISSN: 2750-3402 IBAST | (2026)Volume 6, Issue 06, June C.22-25

7. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna, Kholmurodjonova Dilnoza Dilmurod qizi THE ROLE OF SMART TECHNOLOGIES IN PREPARING FUTURE PRESCHOOL TEACHERS THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY VOLUME-5,ISSUE-11(2026-yil) C.506-508

8. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF SMART TECHNOLOGIES IN TRAINING FUTURE PRIMARY SCHOO TEACHERS International conference on multidisciplinary science VOLUME-3, ISSUE-10 (2025) C.173-174

9. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna THE NECESSITY OF SMART TECHNOLOGIES IN THE TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN THE MODERN ERA International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Moscow, Russia Website: (16th November, 2025) C.144-146

10. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna , Sodiqova Masturaxon Xasanovna DEVELOPING MANUAL SKILLS IN PRESCHOOL EDUCATION: A SCIENTIFIC PERSPECTIVE International Conference on

Economics, Finance, Banking and Management Hosted online from Paris, France International Conference on Economics, Finance, Banking and Management 24th November, 2025 C.18-20

11. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna , Khalilova Dilnozakhon Ne’matjon qizi SOCIAL ADAPTATION OF PRESCHOOL CHILDREN: SCIENTIFIC PERSPECTIVES INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE: (15th NOVEMBER, 2025) – Great Britain, London: C.104-106

12. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna Ganiyeva Dildorakhon Odiljon qizi THE IMPORTANCE OF THE NEUROPEDAGOGICAL APPROACH FOR PRESCHOOL CHILDREN International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Madrid, Spain (20th November 2025) C.82-84

13. Y.Qipchaqova BO‘LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARINI O‘QITISHDA ONLINE SMART TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI GENDER TENGLIGI TADQIQOTLAR MARKAZI “XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY VA MA’NAVIY-MADANIY HAYOTIDAGI FAOLLIGINI OSHIRISHNING GENDER OMILLARI mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami 2025y.C.173-175

14. Qipchaqova. Y.H. BO‘LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARINI ONLINE SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O’QITISH “Inklyuziv transformatsiya sharoitida talabalar ijtimoiy faolligini etnopedagogik manbaalar vositasida shakllatirish tendensiyalari: muammo, yechimlar”Respublika ilmiy-amaliy anjumani (2025-yil,25 oktabr)